



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

УЎК: 616.94-036.22

ЭПИДЕМИОЛОГИЯ И ПРОФИЛАКТИКА ИНФЕКЦИЙ, СВЯЗАННЫХ С ОКАЗАНИЕМ МЕДИЦИНСКОЙ ПОМОЩИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Матназарова Гулбахор Султоновна

директор магистратуры кафедры эпидемиологии Ташкентского
государственного медицинского университета, г. Ташкент, Узбекистан

<https://orcid.org/0000-0001-5884-8969>



Саидкасимова Наргиза Сайфуллаевна

PhD, Доцент

кафедры эпидемиологии Ташкентского государственного
медицинского университета, г. Ташкент, Узбекистан

<https://orcid.org/0000-0003-3218-357X>



Усаров Мардонбек Уктам угли

кафедры эпидемиологии Ташкентского государственного
медицинского университета, г. Ташкент, Узбекистан

<https://orcid.org/0009-0009-7280-6955>,

E-mail: mardonusarov727@gmail.com

Tel: 998996665827



Аннотация. В данной статье анализируется актуальность внутрибольничных инфекций, их эпидемиологические особенности и уровень распространенности на примере Республики Узбекистан. Освещены основные возбудители, пути передачи и факторы риска инфекций, связанных с оказанием медицинской помощи. Также рассмотрены основные виды инфекций, встречающихся в медицинских учреждениях, и их клиническое значение. В статье представлены статистические данные на основе исследований, проведенных в Узбекистане, а также проанализированы профилактические меры, направленные на снижение инфекций. Также изложены современные подходы и задачи на перспективу.

Ключевые слова: Инфекции, связанные с оказанием медицинской помощи, эпидемиология, Узбекистан, инфекционный контроль, профилактика, антибиотикорезистентность, дезинфекция, стерилизация, санитария и гигиена, сепсис, пневмония.



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

EPIDEMIOLOGY AND PREVENTION OF INFECTIONS ASSOCIATED WITH MEDICAL CARE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Matnazarova G.S., Saidkasimova N.S., Usarov M.U.

Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Abstract. This article analyzes the relevance of hospital-acquired infections, their epidemiological characteristics, and prevalence levels using the Republic of Uzbekistan as an example. The main pathogens, transmission routes, and risk factors of infections related to medical care are highlighted. The main types of infections found in medical institutions and their clinical significance are also examined. The article presents statistical data based on research conducted in Uzbekistan and analyzes preventive measures aimed at reducing infections. Modern approaches and tasks for the future are also outlined.

Keywords: Healthcare-associated infections, epidemiology, Uzbekistan, infection control, prevention, antibiotic resistance, disinfection, sterilization, sanitation and hygiene, sepsis, pneumonia.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIBBIY YORDAM KO'RSATISH BILAN BOG'LIQ INFEKSIYALAR EPIDEMIOLOGIYASI VA PROFILAKTIKASI

Matnazarova G.S., Saidkasimova N.S., O'sarov M.O'.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent sh., O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada shifoxona ichi infeksiyalarining dolzarbligi, ularning epidemiologik xususiyatlari hamda O'zbekiston Respublikasi misolida tarqalish darajasi tahlil qilingan. Tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarining asosiy qo'zg'atuvchilari, yuqish yo'llari va xavf omillari yoritilgan. Shuningdek, tibbiyot muassasalarida uchraydigan asosiy infeksiya turlari va ularning klinik ahamiyati ko'rib chiqilgan. Maqolada O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar asosida statistik ma'lumotlar keltirilgan hamda infeksiyalarni kamaytirishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tahlil etilgan. Zamonaviy yondashuvlar va istiqboldagi vazifalar ham bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalar, epidemiologiya, O'zbekiston, infeksiya nazorati, profilaktika, antibiotik rezistentlik, dezinfeksiya, sterilizatsiya, sanitariya-gigiyena, sepsis, pnevmoniya.

Kirish

Tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalar sog'liqni saqlash tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, bemorlar salomatligiga jiddiy tahdid soladi. Ushbu infeksiyalar davolash jarayonini murakkablashtiradi, bemorlarning davolanish muddatini uzaytiradi hamda o'lim ko'rsatkichining ortishiga olib keladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, nozokomial infeksiyalar rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng tarqalgan bo'lib, ularning oldini olish global miqyosda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalari muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Mamlakatimizda olib borilgan ayrim ilmiy tadqiqotlar ushbu



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

infeksiyalarning ayrim bo'limlarda yuqori darajada uchrashini ko'rsatadi. Ayniqsa, jarrohlik va reanimatsiya bo'limlarida infeksiyalar tarqalish xavfi yuqori bo'lib, bu holat sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, sterilizatsiya va dezinfeksiya jarayonlarini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — shifoxona ichi infeksiyalarining epidemiologik xususiyatlarini O'zbekiston Respublikasi misolida tahlil qilish, ularning asosiy xavf omillarini aniqlash hamda samarali profilaktika choralarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarining etiologiyasi va epidemiologiyasini o'rganish;
- O'zbekiston sharoitida ularning tarqalish xususiyatlarini tahlil qilish;
- Asosiy xavf omillarini aniqlash;
- Infeksiyalarni oldini olish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni baholash.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, unda nozokomial infeksiyalar haqidagi ilmiy qarashlar tizimlashtiriladi va ularning epidemiologik jihatlari umumlashtiriladi. Amaliy ahamiyati esa tibbiyot muassasalarida infeksiya nazoratini takomillashtirish, profilaktika choralarini samarali tashkil etish hamda bemorlar xavfsizligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilishi bilan belgilanadi.

Mavzuni o'rganishda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), xalqaro ilmiy markazlar hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalar nazorat qilish bo'yicha xalqaro tavsiyalar va zamonaviy ilmiy nashrlar ushbu yo'nalishda muhim metodologik asos yaratadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarining haqiqiy tarqalish ko'rsatkichlarini to'liq aks ettiruvchi yagona tizimli ma'lumotlar bazasining yetarli emasligi, antibiotik rezistentlik muammosining ortib borayotgani hamda infeksiya nazorati tizimini takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib qolmoqda. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur maqola kirish, asosiy qism, natijalar tahlili va xulosa bo'limlaridan iborat bo'lib, unda shifoxona ichi infeksiyalarining epidemiologiyasi, xavf omillari va profilaktikasi kompleks yondashuv asosida yoritiladi.

Asosiy qism

Mazkur tadqiqot shifoxona ichi infeksiyalarining epidemiologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, quyidagi ketma-ket bosqichlarda amalga oshirildi:

- 1-bosqich — mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribani o'rganish;
- 2-bosqich — O'zbekiston Respublikasida mavjud epidemiologik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- 3-bosqich — shifoxona ichi infeksiyalarining asosiy xavf omillarini aniqlash;
- 4-bosqich — profilaktika chora-tadbirlari samaradorligini baholash;
- 5-bosqich — olingan natijalarni umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning markazida bitta asosiy muammo — O'zbekiston sharoitida shifoxona ichi infeksiyalarining yuqori xavfi va ularni kamaytirish yo'llarini aniqlash masalasi turadi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740


- Analitik usul — ilmiy adabiyotlar va mavjud statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- Taqqoslash usuli — xalqaro va milliy ko'rsatkichlarni solishtirish;
- Statistik usul — infeksiyalar tarqalish darajalarini baholash;
- Kuzatuv usuli — tibbiyot muassasalarida infeksiya nazorati holatini o'rganish;
- Tizimli yondashuv — muammoni kompleks baholash.

Ushbu usullar tanlanishi tadqiqotning maqsad va vazifalariga to'liq mos keladi hamda olingan natijalarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Nazariy tahlil shuni ko'rsatdiki, shifoxona ichi infeksiyalarining tarqalishi asosan quyidagi omillar bilan bog'liq:

- mikroorganizmlarning yuqori virulentligi;
- antibiotiklarga chidamlilik (rezistentlik);
- sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligi;
- invaziv muolajalar sonining ortishi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarni kamaytirish uchun asosiy e'tibor qo'l gigiyenasi, sterilizatsiya, antibiotiklardan oqilona foydalanish kabi omillarga qaratilishi ta'kidlangan.



O'zbekiston Respublikasi misolida o'tkazilgan tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatdi:
Tahlil natijasida quyidagi asosiy xavf omillari aniqlangan:

- qo'l gigiyenasiga rioya qilinmasligi (40–60%)
- invaziv muolajalar
- antibiotiklarni nazoratsiz qo'llash
- sterilizatsiya talablarining buzilishi



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, qo'l gigiyenasini yaxshilash infeksiyalarni 30–40% ga kamaytiradi, sterilizatsiya sifatini oshirish orqali esa infeksiya xavfini 20–30% ga kamaytirish mumkin.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarining asosiy xavf omillari shakllantirildi;

- Infeksiyalar tarqalishining bo'limlar kesimidagi xususiyatlari aniqlandi;

- Profilaktika chora-tadbirlarining samaradorligi o'rganildi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, asosiy muammo faqat infeksiya mavjudligida emas, balki, nazorat tizimining yetarli emasligida va profilaktika choralari to'liq bajarilmasligida. Shu sababli, muammoni hal qilish uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Xulosa


O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalari O'zbekiston Respublikasi tibbiyot muassasalarida dolzarb epidemiologik muammo bo'lib qolmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, infeksiyalar asosan reanimatsiya va jarrohlik bo'limlarida yuqori darajada uchraydi hamda ularning tarqalishida invaziv muolajalar, sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilinmasligi va antibiotiklardan noto'g'ri foydalanish muhim rol o'ynaydi.

Rejalashtirilgan maqsadga muvofiq ravishda infeksiyalarning asosiy turlari, xavf omillari va ularning bo'limlar kesimidagi taqsimoti tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, profilaktik chora-tadbirlar, xususan qo'l gigiyenasini yaxshilash va sterilizatsiya jarayonlarini kuchaytirish infeksiyalar darajasini sezilarli kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning yangiligi shundan iboratki, O'zbekiston sharoitida tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq infeksiyalarining asosiy strukturasi tizimli ravishda umumlashtirildi hamda ularning bo'limlar kesimidagi tarqalish xususiyatlari vizual va statistik tahlil asosida yoritildi. Bu esa muammoni kompleks baholash imkonini berdi.

Amaliy jihatdan, olingan natijalar tibbiyot muassasalarida infeksiya nazorati tizimini takomillashtirish, profilaktika strategiyalarini ishlab chiqish va bemorlar xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shifoxona ichi infeksiyalari turlari ulushi





URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Kelgusidagi tadqiqotlarda antibiotik rezistentlik dinamikasini chuqur o'rganish, elektron epidemiologik monitoring tizimlarini joriy etish hamda infeksiya nazoratida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allegranzi B., Pittet D. Burden of endemic health-care-associated infection in developing countries: systematic review and meta-analysis // *The Lancet*. – 2011. – Vol. 377(9761). – P. 228–241.
2. Boyce J.M., Pittet D. Guideline for Hand Hygiene in Health-Care Settings // *Centers for Disease Control and Prevention (CDC)*. – 2002.
3. Cassini A., Plachouras D., Eckmanns T. et al. Burden of six healthcare-associated infections on European population // *The Lancet Infectious Diseases*. – 2016. – Vol. 16(12). – P. 1343–1351.
4. Duce G., Fabry J., Nicolle L. Prevention of hospital-acquired infections: a practical guide. – Geneva: WHO, 2002.
5. Magill S.S., O'Leary E., Janelle S.J. et al. Changes in prevalence of health care-associated infections in U.S. hospitals // *New England Journal of Medicine*. – 2018. – Vol. 379. – P. 1732–1744.
6. Pittet D., Allegranzi B., Storr J. et al. Infection control as a major World Health Organization priority // *Journal of Hospital Infection*. – 2008. – Vol. 68. – P. 285–292.
7. World Health Organization (WHO). Report on the burden of endemic health care-associated infection worldwide. – Geneva: WHO Press, 2011.
8. World Health Organization (WHO). Guidelines on Core Components of Infection Prevention and Control Programmes. – Geneva, 2016.
9. Karimov B.A., Zokirov F.Sh. O'zbekistonda nozokomial infeksiyalar tarqalishining ayrim jihatlari // *Tibbiyot axborotnomasi*. – 2021. – №2. – B. 52–56.
10. Raximov A.A., Tursunova N.M. Tibbiyot muassasalarida infeksiya nazorati tizimini takomillashtirish // *Sog'liqni saqlash muammolari*. – 2019. – №4. – B. 33–37.
11. A. Vivien, T. Lazard, A. Rauss, M. Laisné, and F. Bonnet. "Infection After Transurethral Resection of the Prostate: Variation Among Centers and Correlation with a Long-Lasting Surgical Procedure." *European Urology*, 1998.
12. B. Alsaywid, and G. Smith. "Antibiotic Prophylaxis for Transurethral Urological Surgeries: Systematic Review." *Urology Annals*, 2013.
13. Gui-ming Zhou, Yuan Zhou, R. Chen, Daoqi Wang, Shumin Zhou, Jiao-e Zhong, Yuanjiang Zhao, et al. "The Influencing Factors of Infectious Complications After Percutaneous Nephrolithotomy: A Systematic Review and Meta-Analysis." *Urolithiasis*, 2022.
14. J. Medina-Polo, K. Naber, and T. B. Bjerkklund Johansen. "Healthcare-Associated Urinary Tract Infections in Urology." *GMS Infectious Diseases*, 2021.
15. James P. Blackmur, N. Maitra, R. Marri, F. Housami, M. Malki, and C. McIlhenny. "Analysis of Factors' Association with Risk of Postoperative Urosepsis in Patients Undergoing Ureteroscopy for Treatment of Stone Disease." *Journal of Endourology*, 2016.
16. S. Chugh, A. Pietropaolo, E. Montanari, K. Sarica, and B. Somani. "Predictors of Urinary Infections and Urosepsis After Ureteroscopy for Stone Disease: A Systematic Review from EAU Section of Urolithiasis (EULIS)." *Current Urology Reports*, 2020.